

TILSHUNOSLIKDA ZAMONAVIY YO'NALISHLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8024291>

Abdumuxtorov Xurshidbek

Andijon davlat chet tillari

instituti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya.

Ushbu maqolada tilshunoslikning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tilning jamiyatdagi o'rni hamda bugungi kundagi tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar.

Sotsiolingvistika, Morze alfaviti, hissiyotlar, grafik chizmalar, signal sistemalari, simpozium, psixologiya.

Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongini va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik (kattalik)larning o'zaro aloqasi muammosi Tilshunoslik va falsafa tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativstilistik (me'yoriyuslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin. Tilshunoslikda yana maxsus tadqiqot usullari – lisoniy hodisalarni kuzatish, lisoniy eksperiment, lingvistik modellashtirish, lingvistik talqin usullari ham mavjud. Tilshunoslik falsafa va filologiya fanlari tutashgan chegarada paydo bo'lgan.

Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi – tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fanidir. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi tufayli til sotsiologlar tomonidan ham o'rganiladi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea va hodisalar tilda aks etmay qolmaydi.

Sotsiolingvistika til va odamlar rivojlanadigan madaniy-ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatni va bu nutq uslubiga qanday ta'sir ko'rsatishini

o'rganadigan fan. Boshqa jihatlar qatorida yosh, jins, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy tabaqasi, ma'lumoti, makon va vaqt tilshunoslik aloqalarining rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Ushbu intizom shu paytgacha uni ishlatgan sub'ekt va ularning sharoitlaridan mustaqil ravishda mavhum tizim sifatida qaraladigan til bo'yicha tadqiqotlar sohasini kengaytirish maqsadida paydo bo'ldi. Sotsiolingvistika atamasini birinchi bo'lib Xarver Kurri o'z ishida ishlatgan Sotsiolingvistikaning proektsiyasi: nutqning ijtimoiy mavqei bilan aloqasi (1952).

Sotsiolingvistika yoki ijtimoiy lingvistika tilshunoslikning yangi bosqichi bo'lib, "til va jamiyat" mavzusining tashkiliy qismidir. Olimlar tilning kishilik jamiyatida tutgan o'rnini naqadar muhim ekanini ko'rsatib, til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir deb ta'riflaydilar. Til yakka-yu yagona aloqa vositasi emas. Aloqa boshqa vositalar orqali ham o'rnatilishi mumkin. Masalan: Morze alfaviti,

imo-ishoralar, Afrikada uzoq masofaga axborot berish uchun qo'llaniladigan nog'ora tovushlari, Kanar orollarida ishlatiladigan «Hushtak-tili» shular jumlasidandir. Lekin bu vositalar tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Til va boshqa aloqa vositalari orasida o'xshashlik va farqlar mavjud. Bu vositalarni bir-biri bilan birlashtiradigan xususiyatlar quyidagilar:

- fikr va hissiyotlarni ifodalaydi;
- ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qiladi;
- moddiy (tovush to'lqinlari, grafik chizmalar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi);
- obektiv borliqni aks ettiradi.

Ular o'rtasida quyidagi farqlar bor:

- til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo'llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko'lami cheklangan, masalan, ko'cha harakati belgilari asosan haydovchilarga xizmat qiladi, boshqa yerda ishlatilmaydi;

- til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish-istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi;

- tildan boshqa barcha signal sistemalari sun'iydir. Ular odamlar tomonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarning yaratilishida odamlarning hammasi emas, balki mazkur sohani yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til esa odamlarning istak-xohishlariga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari o'z ixtiyorlari bilan o'zgartira olmaydi.

Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi, garchand til o'zgaruvchan hodisa bo'lsa-da, u faqat o'zining ichki obektiv qonunlari asosida rivojlanadi. Shu bilan birga shuni ham qayd qilish kerakki, jamiyat bo'lmasa, til bo'lmaydi; jamiyat tilni kundalik hayotida qo'llamasa, u (til) rivojlanmaydi. Demak, til va jamiyat doimo bir-birini taqozo etadi. Boshqa signal tizimlari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Shunday qilib, til o'ziga xos semiologik sistema (ya'ni ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan avlodga madaniy-tarixiy meros va an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi. Sotsiolingvistika fanlararo vujudga kelgan yangi, mustaqil yo'nalish bo'lib, tilshunoslik va bir qator fanlar: sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, etnografiya kabi o'zaro bog'langan fanlar tutashi negizida vujudga kelgandir. Ijtimoiy tilshunoslik bo'yicha bir qator asarlar ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.

Sotsiolingvistika muammolari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, tilshunoslar va sotsiologlarning xalqaro anjumanlarida, konferensiyalarida, simpoziumlarida keng muhokama qilinmoqda. Bu yo'nalishga bo'lgan qiziqish barchaning diqqatini o'ziga tortmoqda. Bir tomondan til qurilishi va til siyosati o'ziga e'tiborni jalb qilsa, ikkinchi tomondan – tizimli lingvistikaning ichki qonun-qoidalari, ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqlik jarayoni tilshunoslarning e'tiborini o'ziga tortmoqda.

Bu soha nafaqat tilshunoslarni, balki sotsiologlar, faylasuflar, psixologlar, etnograflar va shunga yaqin mutaxassislarda qiziqish uyg'otmoqda. XIX asr oxiridayoq tilshunoslikni psixologik va sotsiologik ruhda qayd qilgan Boduen de Kurtene "Tilda ruhiy va ijtimoiy dalillar harakatda bo'lishi sababli tilshunoslik uchun yordamchi fan sifatida dastlabki o'rinda psixologiyani va undan keyin insonlarning jamiyatdagi muloqot munosobatlari haqidagi fan – sotsiologiyani tanlaymiz", degan edi.

ADABIYOTLAR:

1. Bates, E., Rankin, J. (1979). Morphological development in Italian: connotation and denotation. *Journal of Child Language*, -P.53-67.
2. Berko, Jean. (1958). The child's learning of English morphology. *Word*, 14, -P.150-177.

3. Brown, R. (1973) *A first language: The early stages*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

4. De Villiers, J., & De Villiers, P. (1973). A cross-sectional study of the acquisition of grammatical morphemes in child speech. *Journal of Psycholinguistic Research*, 2, 267-278. <https://doi:10.1007/BF01067106>.

5. Krashen, S. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. New York: Pergamon Press. 1982. -P.12.